

«HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI»
AKSIYADORLIK JAMIYATI
«ANDIJON XUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI KORXONASI»
AKSIYADORLIK JAMIYATI

Buloqboshi tuman ELEKTR TA'MINOTI KORXONASI



YURIDIK SHAXSLAR UCHUN ENERGIYA TA'MINOTI SHARTNOMASI

№170011/1010

Buloqboshi tuman tibbiyot birlashmasi
(korxonasi, tashkilot nomi)

ANDIJON-2022 yil

Ulgurji iste'molchilarga elektr energiyasi etkazib berish

shartnomasi

2022 yil 31 " 01

170011/1010- son

Buloqbooshi tumani

(shartnoma tuzilgan joy)

--	--	--	--	--	--	--	--

Iste'molchining shaxsiy hisob-raqami:

"Andijon hududiy elektr ta'minoti korxonasi" AJ Buloqbooshi tuman (shahar)elektr ta'minoti korxonasida 2022 yil 31 " 01 da ro'yxatdan o'tkazilgan 170011/1010 - son ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi rahbari Rasulov Shavkatbek Holiqjonovich (elektr ta'minoti korxonasi rahbarining F.I.Sh.)

(keyingi o'rinlarda Ta'minotchi korxonaga deb ataladi) bir tomondan hamda ikkinchi tomondan Ulgurji iste'molchi (keyingi o'rinlarda **Iste'molchi** deb ataladi)

Buloqbooshi tuman tibbiyot birlashmasi

(so'jalik yurituvchi subektning to'liq nomi)
rahbari Tursunboy Davronov Aliyevich
(so'jalik yurituvchi subektr rahbarining yoki ishonchli vakilining F.I.Sh.)

bilan Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI.

1. Ushbu elektr energiyasi ta'minoti shartnomasiga (keyingi o'rinlarda - **Shartnoma** deb ataladi) muvofiq, Ta'minotchi korxonaga Iste'molchiga elektr energiyasini ulangan tarmoq orqali etkazib berish va Iste'molchi iste'mol qilgan energiya uchun o'z vaqtida haq to'lash majburiyatini oladi.

II. ETKAZIB BERILGAN ELEKTR ENERGIYANI HISOBGA OLISH.

2.1. Elektr energiyasi iste'molning yillik shartnomaviy hajmi:
aktiv energiyasi 31110,9 kVt*soat;
reaktiv energiyasi 450 kVar*soat.

2.2. Etkazib beriladigan elektr energiyaning shartnoma tuzilgan kunidagi narxi 450 so'mni, tarif bo'yicha 139 999 905 (bir yuz o'ttiz to'qqiz million to'qqiz yuz to'hsan to'qqiz ming to'qqiz yuz besh)so'mni tashkil etadi. Tarif turlari

(tabaqalashtirilgan, bir stavkali, aholi narsi va boshqalar tegishli bo'lmaydi)

2.3. Iste'molchiga etkazib beriladigan elektr energiyasining oylar kesimidagi yillik hajmi ushbu Shartnomaga 1-ilovada keltirilgan.

Ta'minotchi korxonaga tomonidan xizmatlarni to'liq hajmda ko'rsatish uchun elektr ta'minotida tanqislik yuzaga kelgan taqdirda, Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-son qarorida qayd etilgan strategik va ijtimoiy axamiyatga ega iste'molchilarga zarur bo'lgan elektr energiyasining minimal hajmini, shu jumladan choraklar va oylar bo'yicha Iste'molchi bilan belgilangan va oldindan kelishilgan tartibda etkazib berilishini ta'minlashi shart (7-ilova).

2.4. Iste'molchi tomondan iste'mol qilgan elektr energiyasining haq to'lanishi lozim bo'lgan hajmi ushbu Shartnomaning 2-ilovasida nazarda tutilgan hisobga olish

priboirlarining ko'rsatkichlari asosida, hisobga olish priboirlari ulangan tok va kuchlanish transformatorlarining transformatsiya koeffitsientlarini inobatga olgan holda aniqlanadi.

2.5. Iste'molchining (maishiy iste'molchilar va tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari) elektr energiyasini hisobga olish priboirlari, shuningdek elektr energiyasini hisobga olishning boshqa vositalari iste'molchining mablag'lari hisobiga sotib olinadi, davlat qiyoslovidan o'tkaziladi, Ta'minotchi korxonaga tomonidan bepul o'rnatiladi, plomblanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi.

Maishiy iste'molchilar va tadbirkorlik sub'ektlarining elektr energiyasini hisobga olish elektron asboblari sotib olish, o'rnatish, ro'yxatga olish, davriy davlat qiyoslovidan o'tkazish va plomblash, shuningdek, mavjud (jumladan, induktiv) hisobga olish priboirlari hududiy elektr tarmoqlari korxonasi mablag'lari hisobidan almashiriladi.

Hisobga olish Iste'molchining aybi bilan buzilgan taqdirda (tok va kuchlanishni o'lchash transformatorlarining ishdan chiqishi, shuningdek ikkilamchi kommutatsiya, hisobga olish priboirlarining shikastlanishi va ularning yo'qolishi) hisobga olish nazorat qilish asboblari va ularga tegishli asbob-uskunalarni almashirish, ta'mirlash, davlat qiyoslovidan o'tkazish va o'rnatish iste'molchi tomondan ular qiymati va ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'langan holda, Ta'minotchi korxonaga tomondan amalga oshiriladi.

III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI.

3.1. Elektr energiyasi uchun hisob-kitoblar bir stavkali, tabaqalashtirilgan, o'sib boruvchi, kamayuvchi koeffitsient qo'llaniladigan yoki aholiga tenglashtirilgan tariflar asosida amalga oshiriladi.

3.2. Ulangan quvvati 750 kVA va undan ortiq bo'lgan Iste'molchi (byudjet tashkilotlari, sav ta'minoti tashkilotlari, fermer xo'jaliklari va suv iste'molchilari uyushmalarining nasos stantsiyalari, shuningdek Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan nasos stantsiyalari bundan mustasno) elektr energiyasi uchun hisob-kitoblarni tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha amalga oshiradi.

Iste'mol qilingan energiya uchun tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha hisob-kitoblar:

- yarim tig'iz davr - sukaning yorug' vaqtida (soat 9-00 dan 17-00 gacha) - belgilangan tarif bo'yicha.

- tig'iz davr - eng katta yuklamali soatlarda (yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamali soatlari: ertalabki eng katta miqdor soat 6-00 dan 9-00 gacha, kechki eng katta miqdor soat 17-00 dan 22-00 gacha) belgilangan tarifiga nisbatan 1,5 baravar miqdorda o'shuvchi koeffitsientni qo'llash orqali;

- tungi davr - sukaning qorong'ivag'tida (eng kam yuklamali soatlarda: 22-00 dan 24-00 gacha va 00-00 dan 6-00 gacha) - belgilangan tarifiga nisbatan 1,5 baravar kamayuvchi koeffitsientni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Belgilangan tarif II tarif guruxi iste'molchilari uchun bir stavkali tarifiga mos kelaadi. Tabaqalashtirilgan tarif qo'llanilmaydigan iste'molchiga nisbatan energiya uchun hisob-kitoblarda bir stavkali tarif qo'llaniladi.

Reaktiv energiya kompensatsiyasi uchun chegirmalar (ustamalar) reaktiv energiyani hisobga olish priboirlarining ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi hamda tegishli ravishda iste'mol qilgan (hosil qilgan) reaktiv energiyaning 1 kVarG soat uchun to'lov tarzida undiriladi.

Reaktiv energiyaning shartnomaviy miqdori reaktiv energiyaning iqtisodiy qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Reaktiv energiyani har bir hisobot davri uchun iqtisodiy qiymati, shartnomada ko'rsatilgan va o'rnatilgan tartibda aniqlanadigan quvvat ko'effitsientining optimal miqdori hisobga olinib, ushbu davr uchun aktiv energiyani shartnomadagi miqdordan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ulangan quvvatdan qat'iy nazar, kripto-aktiv va mayning sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi Iste'molchilar (turli kripto valyutalarda yangi birliklar va komissiya yig'irlari formatida mukofot olish imkonini beradigan taqsimlash platformasini ta'minlash va yangi bloklar yaratish bo'yicha faoliyat) foydalanadigan elektr energiyasi uchun to'lovlarini tegishli tarif guruxiga asosan belgilangan tarifga nisbatan 3 barobar o'suvchi ko'effitsientiga muvofiq to'laydi.

3.3. Bir nechta tarif guruxlariga mansub Iste'molchi bilan hisob-kitoblar, har bir tarif guruxiga alohida o'rnatilgan hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi.

3.4. Ta'minotchi korxonada Iste'molchi (yoki uning vakili) bilan birgalikda Iste'mol qilgan elektr energiyasining amaldagi miqdorini aniqlash uchun ulardagi elektr energiyasini hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini har oyda yozib olishi va zarur bo'lganda elektr energiyasini hisobga olish priborlarini ulash sxemasini tekshirib ko'rish vakolatiga ega.

Ta'minotchi korxonada Iste'molchi bilan birgalikda hisob-kitob davri tugagandan so'ng (mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda) hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlarini har oyda yozib oladi va ushbu Shartnomaning 5-ilovasiga muvofiq shaklda energiya sarfi bo'yicha hisobot tuzadi. Iste'molchi tomonidan elektr energiyasi sarfi to'g'risida Ta'minotchi korxonaga belgilangan shakl bo'yicha o'z qo'li bilan, faksimil, elektron yoki pochta aloqasi orqali taqdim etilgan hisobot ham Iste'mol qilgan amaldagi hajmini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bunda, to'lovlarini tabaqalashtirilgan tarifda amalga oshiriladigan Iste'molchilar bo'yicha elektr energiyasi sarfi bo'yicha hisobotda foydalanilgan elektr energiyasi (aktiv va reaktiv) to'liq hajmidan tashqari tig'iz, yarim tig'iz va tungi paytlarda foydalanilgan elektr energiyasi hajmlari alohida ham ko'rsatilishi shart.

Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi (keyingi o'rinlarda EHNAT deb ataladi) joriy etilgan Iste'molchilarda hisobga olish priborlaridagi ko'rsatkichlar avtomatlashtirilgan tizimning texnik parametrlariga muvofiq, biroq bir oyda kamida bir marta yoki Iste'molchining buyurtmasi bo'yicha yozib olinadi.

3.5. Elektr energiyasi uchun amaldagi tariflar o'zgaragan taqdirda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi ularning kuchiga kirishidan kamida 15 kun oldin qarorni ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladi.

Bunda elektr energiyasi uchun tariflar o'zgaragan sanadan qat'iy nazar, elektr ta'minoti shartnomasi o'z kuchida holda va Iste'molchi foydalanilgan elektr energiyasi uchun yangi tarif kuchiga kirgan kundan boshlab xaq to'lashga majburdir.

Tarif o'zgaragan taqdirda, Iste'molchilar elektr energiyasi (shu jumladan aktiv va reaktiv energiya)ning avans tariqasida to'langan hajmi uchun to'lov kuni boshlab keyingi bir oydan ortiq bo'lmagan muddatda qo'shimcha to'lov to'lashdan ozod etiladi.

Aritmetik xatoliklar, tariflarni noto'g'ri qo'llash tufayli paydo bo'ladigan kam va ortiqcha to'lovlar tegishli tarif bo'yicha kVt*soatlarda qayta hisoblab chiqiladi va Ta'minotchi korxonada tomonidan davro muddati doirasida ko'rsatkichlardagi tafvot yoki qo'shimchalar bilan birgalikda hisobga olinadi.

3.6. EHNATga ulangan yoki oldindan haq to'lash qurilmasi va hisobga olish priboriga ega bo'lgan Iste'molchilarga elektr energiyasi etkazib berish oldindan to'langan to'lov doirasida amalga oshiriladi.

Iste'molchiga elektr energiyasi etkazib berish 100 % oldindan haq to'lash asosida amalga oshiriladi.

Bunda, hisob-kitobni 50 % oldindan haq to'lash asosida amalga oshirish xohishini bildirgan Iste'molchi hisob-kitob amalga oshiriladigan davrni ko'rsatib, hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin bildirgi tartibida Ta'minotchi korxonaga murojaat qilgan taqdirda elektr energiyasi Iste'molchiga 50 % oldindan haq to'lash asosida etkazib berilishiga yo'l qo'yiladi. Oldindan haq to'lanmagan hamda 50 % oldindan haq to'layotgan Iste'molchi tomonidan o'ynung oxirigacha yakuniy hisob-kitob amalga oshirilgan hollarda mazkur Iste'molchiga nisbatan elektr tarmoqlaridan to'lov uzilishiga bo'lgan choralar ko'riladi.

3.7. Ta'minotchi korxonada Iste'molchining energiya sarfi to'g'risidagi hisoboti asosida belgilangan tartibda hisob-kitobni amalga oshiradi va besh kun ichida to'lov amalga oshirish uchun hisob-faktura va to'lov hisob-varag'ini taqdim etadi. To'lov to'g'risida xabardor qilish ogohlantirish hisoblanadi.

Iste'molchi turli tarif guruxlariga tegishli bo'lgan bir nechta ob'ektga ega bo'lsa, har bir tarif guruxi uchun tarif ko'rsatilgan holda umumiy hisob-faktura taqdim etiladi.

Ta'minotchi korxonada tomonidan maxsus dasturiy mahsulot orqali hisob-faktura va to'lov hisob-varag'i shakllantiriladi hamda Iste'molchi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan holda elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanib, operator orqali rouming operatoriga yuboriladi. Agar maxsus dasturiy mahsulot orqali etkazish imkoniyati mavjud bo'lmasa, hisob-faktura va to'lov hisob-varag'i yozma shaklda beriladi.

(Asos: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.06.2019 yildagi 522-sonli "O'zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisob-varag' fakturalardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori)

3.8. Hisobga olish pribori ushbu Shartnomaning 3-ilovasiga muvofiq, elektr tarmoqlarining mansublik balansi bo'yicha farqlash dalolatnomasi va tomonlarning ekspluatatsiya javobgarligi asosida aniqlanadigan elektr tarmoqning mansublik balansi chegarasida o'rnatilgan, chegaradan hisobga olish pribori o'rnatilgan joyigacha bo'lgan hududda energiyani texnologik sarflanish hajmi Iste'molchi bilan birgalikda hisoblash yo'li orqali aniqlanadi va ushbu Shartnomaning 4-ilovasiga muvofiq dalolatnomada ko'rsatiladi va elektr tarmoqning balans bo'yicha mansubligiga qarab hududiy elektr tarmoqlari korxonasining va Iste'molchining hisobiga o'tkaziladi. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va kommunal-ekspluatatsiya tashkilotlarining ko'p qavatli uyning ichki tarmoqidagi yoqotishlar bundan mustasno.

Bunda, 750 kVA va undan yuqori quvvatga ulangan, tabaqalashtirilgan tarifda to'lovlarini amalga oshiradigan Iste'molchi uchun energiyani texnologik sarflanish hajmi sutkaning tig'iz, yarim tig'iz va tungi paytlari uchun alohida aniqlanib, mutanosib ravishda jami olingan elektr hajmining tegishli paytlariga to'lov hajmini yozish uchun qo'shib beriladi (6-7-ilovalarni reaktiv quvvatga ega va texnologik bronli Iste'molchilar to'ldiradi).

3.9. Elektr energiyasi yagona elektr energetika tizimidan tranzit bo'yicha Iste'molchining elektr tarmoqi orqali hududiy elektr tarmoqlari korxonasining elektr tarmoqiga uzatilgan. Iste'molchi tarmoqlaridagi elektr energiyasi texnologik sarflarining bir qismi, Iste'molchining elektr tarmoqiga kelib tushgan elektr energiyasining umumiy miqdoriga nisbatan hududiy elektr tarmoqlari korxonasining elektr tarmoqiga Iste'molchi tomonidan

uzatilgan elektr energiyasi miqdoriga mutanosib ravishda, yagona elektr energetika tizimining elektr tarmoqlaridagi texnologik sarflarga o'tkaziladi.

3.10. Elektr energiyasi sarfi to'g'risidagi hisobot Iste'molchi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, Ta'minotchi korxonada tomonidan elektr energiyasi (shu jumladan aktiv va reaktiv energiya) iste'molning shartnomaviy miqdori bo'yicha yoki o'tgan hisob-kitob davri uchun elektr energiyasi iste'molning o'rtacha sutkalik amaldagi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar asosida hisob-kitob qilinadi.

Bunda hisobga olish pribrorlari ko'rsatkichlari nazorat tartibida Ta'minotchi korxonada tomonidan yozib olingandan keyin amalda iste'mol qilgan elektr energiyasi uchun qayta hisob-kitob qilinadi. Qayta hisob-kitob Iste'molchi yoki uning vakili ishtirokida yoxud uning ishtirokisiz belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3.11. EHNAning joriy etilishi munosabati bilan Iste'molchining hisobga olish pribrorlaridagi ko'rsatkichlar avtomatlashirilgan tizimning texnik parametrlariga muvofiq, biroq bir oyda kamida bir marta yoki Iste'molchining buyurtmasi bo'yicha yozib olinadi.

Ta'minotchi korxonada Iste'molchining shaxsiy hisob-raqami va hisobga olish pribrorlarining ko'rsatkichlari haqida batafsil ma'lumotlar doimiy asosda shakllantirilishi va idoralararo elektron hamkorlik qilish tizimiga real vaqt rejimida yuborilishini ta'minlaydi.

3.12. Shartnomada hisob-kitob davri uchun ko'rsatilgan energiya miqdordan 5 % dan ortiq miqdorda energiya iste'mol qilganda, Iste'molchidan shartnomada ko'rsatilgan miqdordan ortiq iste'mol qilgan elektr energiyasi jami hajmi uchun belgilangan tarifning 1.15 baravari miqdorida to'lov undiriladi.

Iste'molchining elektr energiyasi haqini to'lash, reaktiv energiya kompensatsiyasi uchun tarifga ustamalar, shuningdek, noqonuniy foydalanilgan elektr energiyasi qayta hisob-kitobi va penya bo'yicha qarzi bo'lgan taqdirda, uning avans to'lovi hisobiga o'tkazilgan mablag'lari qarzni qoplashga yo'naltiriladi va avans to'lovi (oldindan haq to'lash) sifatida hisobga olinmaydi.

Iste'molchi shartnomada ko'rsatilgan elektr energiyasi xajmini to'liq iste'mol qilgan taqdirda, avans tartiqasida to'langan mablag'lar qaytarib berilmaydi va elektr energiya uchun keyingi hisob-kitoblarda hisobga olinadi.

Hisob-kitob oyidan keyingi kalendar oy tugagach qarzdorlik to'lov muddati o'tgan deb hisoblanadi va to'lov muddati o'tgan har bir kun uchun Iste'molchiga to'lov muddati o'tgan summaning 0.1 % miqdorida, elektr energiyasi maxsus tartibda etkazib beriladigan korxonalar uchun esa 0.2 % miqdorida penya hisoblab yoziladi. Bunda penyaning umumiy miqdori, muddati o'tgan to'lovning 50 % oshmasligi lozim.

3.13. Iste'molchi va Ta'minotchi korxonada har oyda hisob-kitob davri tamom bo'lgandan keyin besh kun mobaynida o'zaro hisob-kitoblarni taqqoslash dalolatnomasini tuzadi.

3.14. Iste'molchi quyidagi hollarda elektr tarmoqlaridan uziladi:
- hisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi oqibatida foydalanilgan elektr energiyasi uchun harzdorlik mavjud bo'lganda;

- Ta'minotchi korxonaning qonuniy talabnomalari bajarilmaganda, shu jumladan, uning tegishli vakillariga hisobga olish pribrorlari ko'rsatkichlarini olishga yo'l qo'yilmaganda;

- hisobga olish pribrorlarini qasddan buzganda, ko'rsatkichlarni o'zgartirish maqsadida ularning ishtirokida tashqaridan aralashish xatti-harakatlari amalga oshirilganda;

- elektr energiyasidan noqonuniy foydalanilgani, elektr tarmoqlariga noqonuniy ulanish, talon-tarof qilish yoki Vazirlar Mahkamasining 2018 yil

12 yanvardagi 22-sonli qarori bilan tasdiqlangan Elektr energiyasidan foydalanish qoidalar (keyingi o'rinlarda qoidalar deb ataladi) boshqaqoida buzilishi holatlari aniqlanganda;

- yagona elektr energetika tizimida elektr energiya va quvvatda tanqislik vujudga kelganda, avariyalarga yo'l qo'ymaslik va iste'molchilarning tartibsiz uzib qo'yilishini oldini olish maqsadida hududiy elektr tarmoqlari korxonasi o'chirish vaqtini ko'rsatgan holda, iste'molchilardan reklamalar, illyuminatsiyalar, bino va inshootlarni yoritgichlarini, elektr ititish va issiq suv bilan ta'minlash qurilmalarini o'chirib qo'yish talabi bajarilmaganda;

Sud organlarining qonuniy kuchga kirgan qarorlariga asosan.

Iste'molchilar va subist'e'molchilar (jirachilar), tadbirkorlik sub'ektlari yoxud fuqarolar o'rtasida turli xil nizoli (kelishmovchilik) holatlarda, faqatgina sudning qonuniy kuchga kirgan qarorlarida tarmoqdan ajratish (ulash) belgilangan bo'lsa Ta'minotchi korxonada elektr tarmoqdan ajratish yoki qayta ulanishni amalga oshiradi.

3.15. hisobga olinmagan energiya uchun amalga oshirilgan qayta hisob-kitob, Iste'molchini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

3.16. Ta'minotchi korxonada etkazib berilgan elektr energiya uchun qarzdor bo'lgan Iste'molchiga qarzni besh kun ichida to'lanishi haqida xabardor qilishni ta'minlaydi (EHNAga ulangan iste'molchilar bundan mustasno).

Ta'minotchi korxonada Iste'molchini xabardor qilgan vaqtdan boshlab besh kun muddat o'tgandan so'ng, Iste'molchini debitor qarzdorlik uchun tarmoqdan uzib qo'yish va ularni qaytadan ulashni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradi.

qayta ulanishda Iste'molchidan to'lov kuni amalda bo'lgan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida xaq undiriladi. Bunda, EHNAga ulangan ya'ni, hisobga olish pribrori avtomatik tarzda o'chirib-yoqish qurilmasiga ega bo'lgan iste'molchilarni tarmoqlariga qayta ulanishi uchun haq undirilmaydi.

3.17. Iste'molchi elektr tarmoqlarining texnik holatini ta'minlash bo'yicha ekspluatatsiya harajatlari uchun subist'e'molchilar, iste'molchi bilan subist'e'molchi o'rtasida tuzilgan alohida shartnoma bo'yicha elektr energiyasining umumiy hajmidan olinadigan ulushga mutanosib ravishda haq to'laydi.

Ekspluatatsiya harajatlari subist'e'molchiga beriladigan elektr energiyasi tarifiga qo'shishga ruxsat etilmaydi.

3.18. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va kommunal-ekspluatatsiya tashkilotlari, elektr energiyasidan aholiga elektr energiyasi etkazib berish maqsadida foydalanuvchi idoraviy va munitsipal uy-joy fondi, yuridik shaxslar yotoqxonalarini, diniy tashkilotlar, shuningdek, elektr energiyasidan aholi ehtiyojlari uchun foydalanadigan lokal qozonxonalarga maishiy iste'molchilarga belgilangan tarif qo'llaniladi.

3.19. Elektr energiyasini hisobga olish pribror bilan birgalikda foydalaniladigan o'lshov transformatorlarini boshqa joyga o'rnatish va almashtirish Ta'minotchi korxonada bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Iste'molchining aybi bilan elektr energiyasini hisobga olish pribroriga zarar etkazilgan (plombasi buzilsa, oynasi sinasa va boshqalar), elektr energiyasini hisobga olish pribrorini ulash sxemasi o'zgartirilgan, hisobga olish asbobining xotira bloki va uni dasturlashdan foydalanish tugamasiga (bo'lmastiga) tashqaridan ta'sir ko'rsatilgan, elektr energiyasini hisobga olish pribroridan tashqari elektr qabul qilgichlarni ulash yoki energiya boshqa usulda o'g'rilangan hollarda, Ta'minotchi korxonaning vakolatli vakili

belgilangan shakl bo'yicha qoidani buzish dalolatnomasini tuzadi. Ushbu dalolatnoma asosida Ta'minotchi korxonaga iste'molchini elektr tarmoqidan uzib qo'yadi.

Hisobga olinmagan elektr energiyasi miqdorining qiymati Ta'minotchi korxonaga tomonidan ushbu Shartnomada ko'rsatilgan Iste'molchining ish soatlari soni hisobga olingan holda elektr qabul qilgichlarning ulangan quvvati bo'yicha quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

- elektr energiyasini hisobga olish pribori, o'lovch transformatorlarini ulash sxemalari o'zgartirilganda, hisobga olish asbobining xotira bloki va uni dasturlashdan foydalanish tugmasiga (bo'lmasiga) tashqaridan ta'sir ko'rsatilganda va hisobga olishni nazorat qilishasboblaridan tashqari elektr qabulqilgichlar ko'z bilan aniqlab bo'lmaydigan (aniqlash murakkab bo'lgan) yashirin yo'l bilan (yashirin elektr simlari, pereklyuchatellar montaj qilinishi va shu kabilar) ulanganda — elektr energiyani hisobga olishning nazorat asboblari oxirgi almashirilgan yoki ulanish sxemalari tekshirilgan kundan boshlab, biroq da'vo muddatidan ortiq bo'lmagan muddatda;

- elektr energiyasini hisobga olish priboriga iste'molchining aybi bilan zarar etkazilganda (plombasi buzilishiga yo'l qo'yilgan, oymasi singan va shu kabi holatlar) yoki elektr energiyasi aylanib chiqishda ko'z bilan aniqlash mumkin bo'lgan (bir harashda aniqlash mumkin bo'lgan) boshqa usulda o'g'irlangan taqdirda — oxirgi marta aylanib chiqilgan yoki elektron ko'rsatkichlar olingan kundan boshlab, biroq da'vo muddatidan ortiq bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

Hisobga olinmagan elektr energiyasi miqdori qiymatini hisob-kitob qilishda qoida buzish aniqlanishidan oldingi davr uchun amaldagi to'lovlar hisobga olingan holda, qayta hisob-kitob amalga oshirilayotgan vaqtdagi tarif qo'llaniladi. Bunda I tarif guruxidagi Iste'molchilar uchun hisobga olinmagan elektr energiyasi miqdorining qiymati yagona elektr energetikasi tizimining maksimal yuklanish soatlari da'vo qiladigan tarif bo'yicha hisob-kitob qilinadi.

Elektr energiyasini hisobga olish Iste'molchining aybisiz vaqtinchalik buzilganda etkazib berilgan elektr energiyasi uchun hisob-kitob Ta'minotchi korxonaning qarori bo'yicha, hisobga olish buzilishiga qadar bo'lgan oldingi hisob-kitob davridagi yoki hisobga olish tiklangandan keyingi davrdagi o'rtacha sutkalik sarf bo'yicha amalga oshiriladi.

Elektr energiyaning o'rtacha sutkalik sarfi bo'yicha hisob-kitob qilish davri bir oydan oshmasligi kerak va shu vaqt ichida hisobga olish tiklanishi zarur.

Agar, elektr energiyani hisobga olish priborini ob'ektiv sabablarga ko'ra, ko'rsatilgan muddatda (o'lovch transformatorining, hisobga olish priborining yo'qligi, o'tib bo'lmaydigan yo'llar va shu kabilar tufayli) tiklash imkoniyati bo'lmasa, iste'molchiga etkazib berilgan elektr energiyasi uchun hisob-kitob qilish tartibi va hisobga olishni tiklash muddati iste'molchi va hududiy elektr tarmoqlari korxonasining o'zaro kelishuvi bilan belgilanadi.

Elektr energiyasidan foydalanishda Iste'molchi tomonidan yo'l qo'yilgan qoidabuzilishlar Ta'minotchi korxonaga vakili va Iste'molchi tomonidan imzolangan ikki nusxadagi belgilangan shakl bo'yicha dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi, uning bir nusxasi Iste'molchiga beriladi va Ta'minotchi korxonaga tomonidan ushbu qoidalarni buzgan Iste'molchi elektr qurilmalari tarmoqdan uzib qo'yiladi.

Iste'molchi dalolatnomani imzolashni rad etgan taqdirda, qoida buzish dalolatnomasida iste'molchini tamishtirganlik to'g'risida belgi qo'yiladi.

IV. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Iste'molchi quyidagi huquqlarga ega:

- Iste'molchining elektr qurilmalarini Ta'minotchi korxonaga elektr tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq o'rnatilgan tartibda ulash;

- sifat ko'rsatkichlari davlat standartlariga muvofiq o'rnatilgan tartibda elektr energiyasini olish;

- elektr energiyasi sababsiz (asossiz) etkazib berishning to'xtalishi yoki to'xtatib qo'yilishi sabablari to'g'risida belgilangan tartibda axborot olish;

Ta'minotchi korxonaga iste'mol qiladigan elektr energiyasi hajmlarining o'zgartirilishi to'g'risida belgilangan tartibda takliflar kiritish. Bunda elektr energiyasining shartnomadagi hajmini o'zgartirish bo'yicha taklif mo'ljallanayotgan o'zgartirishdan 10 kun oldindan (jori oy tugaguncha) berilishi kerak elektr energiyasi to'liq hajmda etkazib berilmasligi yoki sifat ko'rsatkichlari davlat standartlariga muvofiq bo'lmagan elektr energiyasi etkazib berilishi oqibatida hududiy elektr tarmoqlari korxonasi yoki elektr ta'minoti korxonasi (aybdor tashkilot) tomonidan etkazilgan zararlarni belgilangan tartibda qoplash;

- Shartnomani qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama tartibda bekor qilish;

- Shartnoma bekor qilganda foydalanilmagan elektr energiyasi miqdori uchun to'langan mablag'ni qaytarilishini talab qilish;

- Elektr energiyasi etkazib berilishi to'xtatilganda etkazilgan zararni qoplashni talab qilish;

- elektr ta'minoti shartnomasini tuzishda va bajarishda yuzaga kelayotgan nizolarni hal etish uchun sudga, monopoliyaga qarshi davlat organiga yoki bo'yisunuv bo'yicha yuqori organga (mansabdor shaxsga) murojaat qilish;

- Ta'minotchi korxonaga vakillari kelganda ularni kelganligini qayd etish daftari (shnurlangan holda) tutilgan taqdirda unga Ta'minotchi korxonaga vakili kelganida belgilangan tartibda o'z to'g'risidagi ma'lumotlarni (FIO, mansabdor shaxs buyruqi rahami va sanasi, lavozimi, sana, kelgan vaqti, kelish sababi va boshqaqlar) yozma to'ldirib, imzo chekiritish;

- elektr energiyasi priborlari va qurilmalari xavfsizligini ta'minlash maqsadida doimiy ishlaydigan kuzatuv kameralarini o'rnatish.

Iste'molchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqaruqlarga ham ega.

4.2. Iste'molchi quyidagilarga majbur:

Ta'minotchi korxonaga tomonidan belgilangan elektr energiyasini iste'mol qilish rejimiga rioya etish.

- foydalanilgan elektr energiyasi (quvvati) uchun o'z vaqtida haq to'lash;

- ishlatilayotgan elektr qurilmalari, asboblari va asbob-uskunalarining zarur texnik holatini va iste'molchilarning elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash, hududiy elektr tarmoqlari korxonasiga yoki elektr ta'minoti korxonasiga elektr asbob-uskunalarining nosozligi to'g'risida xabar qilish;

- elektr energiyasidan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

- O'zenergoinspektsiya'ning yozma ko'rsatmalarini o'z vaqtida bajarish;

- Elektr qurilmalarining tuzilishi qoidalariga rioya etish;

- o'ratilgan tartibda Ta'minotchi korxonada vakillarga elektr energiyasini hisobga olish priborlarini ko'rishga imkon berish;

- yil mobaynida yangidan ishga tushiriladigan elektr qurilmalaridan foydalanish boshlanishidan kamida bir oy oldin elektr energiyasining zarur miqdori uchun hududiy elektr tarmoqlari korxonasiga buyurtmanoma berish;

- kelgusi yil uchun elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda elektr energiyasini elektr tarmoqlaridan uzatishda, ishlab chiqariladigan mahsulotning (ishlar turlarining) texnologik jarayoni ishlab chiqarish ehtiyojlariga, ishlab chiqarish binolari va ma'muriy binolarni yoritish, isitish, shamollatish uchun elektr energiya sarfini, shuningdek, ushbu elektr tarmoqlariga ulangan subiste'molchilarning ehtiyojini hisobga olish.

Iste'molchi tomonidan hisobga olish priborini EHNATda muqobil (soz holda) ishlatishga to'sqinlik qilishi amaldagi qonun va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarga asosan javobgar bo'lishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, ulangan quvvati 5 MVt va undan ortiq bo'lgan Iste'molchi Ta'minotchi korxonaning talabiga ko'ra quyidagilarni hisobga olishi va bu haqida xabar berishi shart: iste'mol qilinayotgan quvvatning har sutkalik, har oylik sarfi va amaldagi miqdori;

yagona elektr energetika tizimining eng ko'p va eng kam yuklamali davrlarida reaktiv energiya va quvvatning har sutkalik sarfi;

yagona elektr energetika tizimining eng ko'p yuklamasining o'tish davrida aktiv energiya (quvvat)ning har 30 daqiqadagi sarfi.

Ulangan quvvati 250 kVA va undan ortiq bo'lgan iste'molchilar yuqorida ko'rsatilgan majburiyatlar bilan birgalikda quyidagilarga majbur:

- mahsulot birligini ishlab chiqarish (ishlarni amalga oshirish) uchun elektr energiyasi sarfining texnik va iqtisodiy jihatdan asostlangan ilg'or normalarni ishlab chiqish - umumiy ishlab chiqarish va texnologik; yakka tartibdagi va guruh bo'yicha; yillik, choraklik va oylik ularni ishlab chiqarishni tashkil etish texnologiyasi takomillashtirilishi (o'zgartirilishi) va yangi texnika joriy etilishiga harab qayta ko'rib chiqish;

- korxonada bo'yicha, shu jumladan ko'p energiya sarflaydigan uskunalar, sexlar va iste'molchilar guruxlari bo'yicha elektr energiyasi balanslarini tuzish hamda ular asosida ishlab chiqarish jarayonlarida elektr energiyasidan foydalanish samaradorligini tahlil qilish, elektr energiyasining samarasiz sarflanishi va isrof bo'lishini aniqlash, ularni kamaytirish va bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- kelgusi davr uchun elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojni va elektr tarmoqlarining energiya o'tkazish qobiliyatini oshirish, elektr ta'minoti sxemalarini takomillashtirish zaruriyatini aniqlash maqsadida (mahsulot ishlab chiqarishning, bajariladigan ish turlarining mo'ljallanayotgan prognoz hajmlaridan va elektr energiyasi sarfi me'yorlaridan kelib chiqib, ularni kamaytirish va elektr energiyasini tejashni hisobga olgan holda) elektr energiyasining bir yil va kelgusi davr uchun balanslarini tuzish;

- mahsulot (ishlar) birligiga elektr energiyasi sarfining tasdiqlangan me'yorlariga rioya qilish va ularni kamaytirish bo'yicha belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash;

elektr energiyasini tejash bo'yicha (yillik va uzoq istiqbol uchun) tashkiliy-texnik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Iste'molchi Ta'minotchi korxonada tomonidan o'ratilgan tartibda belgilangan energiya iste'molini cheklash javvalmi bajarishi shart.

Yillik elektr energiyasi iste'moli ikki ming tonnadan ortiq shartli yoqilg'iga teng yoki ortiq bo'lgandavakolatli organ tomonidan belgilangan tartibda energetika tekshiruvidan o'tkaziladi;

- Ta'minotchi korxonada vakillari tashrif buyurganda qonunbuzilish holati aniqlanganida va aniqlanmaganida taqdirida ham belgilangan tartibda va shaklda dalolatnoma rasmiylashtirib, uni bir nusxasini taqdim etilishini talab qilish; Iste'molchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqamajburiyatlarga ham ega.

4.3. Ta'minotchi korxonada quyidagi huquqlarga ega:

iste'molchilardan elektr ta'minoti shartnomasida belgilangan majburiyatlarini tegishli darajada bajarishni talab etish;

iste'molchilar tomonidan elektr ta'minoti shartnomasi shartlari bajarilmasligi yoki buzilishi oqibatida unga etkazilgan zararining belgilangan tartibda qoplanishi;

avariya rejimida iste'molchilarni elektr tarmoqlaridan uzish (o'chirish);

EHNATga ulangan va oldindan to'langan mablag' tugagandan so'ng elektr energiyasi uchun oldindan to'lovni amalga oshirish qurilmasiga ega hisobga olish pribori mavjud bo'lgan iste'molchilarni uzish. Bunda uzilgandan so'ng iste'molchining ko'rishini ta'minlash bo'lgan zarari uchun Ta'minotchi korxonada javobgar bo'lmaydi.

qoidalar va boshqanormativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan holatlarda Iste'molchilarni elektr tarmoqlaridan uzish oqibatlarini uchun javobgar bo'lmaydi.

Ta'minotchi korxonada qonunchilikda belgilangan boshqahuquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.4. Ta'minotchi korxonada quyidagilarga majbur:

Iste'molchiga elektr energiyasini elektr tarmoqi orqali elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansublik bo'lishi chegarasigacha shartnomada ko'rsatilgan hajmda muntazam etkazib berish;

uskunalar, elektr uzatish liniyalarini, hisobga olish priborlaridan foydalanish, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, shuningdek, o'z elektr xo'jaligi ob'ektlaridagi nosozliklarni bartaraf qilish;

elektr tarmoqi bo'yicha ob'ektlarini rejali ta'mirlanishi tufayli elektr energiyasi bilan ta'minlashdagi mumkin bo'lgan uzilishlar to'g'risida kamida 3 kun oldin ogohlantirish;

Iste'molchini elektr energiyasini etkazib berilishi to'xtatilishi va to'xtatilish sabablari to'g'risida xabardor qilish (Iste'molchi mas'ul xodimlarini uyali aloqa vositasi orqali (telefonogramma), ovozi xabar, telegram xabar, SMS xabar (internet saytlar) orqali yoki yozma tarzda);

kiritilayotgan cheklashlar to'g'risida, cheklashlarni hajmi va vaqti ko'rsatilgan holda Iste'molchiga oldindan xabar berish;

elektr energiyasi to'liq etkazib berilmaganligi yoki elektr ta'minotidagi boshqabuzilishlar to'g'risidagi Iste'molchining arizasini, ariza olingan kundan boshlab 10 kundan kechiktirmay ko'rib chiqish qoidalariga muvofiq bartaraf etish va batafsil javob yuborish;

Iste'molchiga o'ratilgan tartibda etkazib berilgan energiya hisobini yuritish;

Iste'molchining belgilangan tartibda kiritilgan takliflariga muvofiq besh kun muddatda elektr energiyasining oylik shartnomaviy hajmiga o'zgartirishlar kiritish, elektr

VII. KORRUPTSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV.

7.1. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korruptsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishonitiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi.

7.2. Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqavakillari) Taminotchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Taminotchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korruptsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

VIII. YAKUNIY SHARTLAR.

8.1. Shartnoma 2022 yil 31 dekabr gacha bo'lgan muddatga tuzildi. Shartnomaning amal qilish muddati tugaganda, tomonlardan biri uni uzaytirish yoki bekor qilish bo'yicha ariza bermagan bo'lsa, shartnoma keyingi har bir yilga uzaytirilgan hisoblanadi (Byudjet tashkilotlari bundan mustasno). Ariza ushbu Shartnomaning amal qilish muddati tugashidan bir oy oldin taqdim etilishi lozim.

8.2. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan va tomonlarning har birida saqlanayotgan ikki (Byudjet tashkilotlari uchun uch) nusxada tuzilgan. Uning ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

8.3. Tomonlarning birini tashabbusi bilan shartnomani muddatidan oldin bekor qilish, ikkinchi tomonni bekor qilish muddatidan o'ttiz kun oldin xabardor qilgan holda va tomonlar o'zaro hisob-kitob qilishi sharti bilan bekor qilinishi mumkin. Bekor qilish to'g'risida xabar nomma yozma ravishda yuboriladi.

8.4. Barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular faqat yozma ravishda amalga oshirilib, tomonlarning vakolatli shaxslar tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

8.5. Ushbu Shartnoma talablarida nazarda tutilgan va tutilmagan holatlar bo'yicha nizolar kelib chiqqan taqdirda qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq tartibga solinadi.

ISTE'MOLCHILARGA OGOHLANTIRISH!

Umumiy foydalanishdagi elektr tarmoqlariga o'z boshimchalik bilan ulanish yoki ulardan foydalanish qoidalarini boshqacha tarzda buzish yoxud elektr energiyasini hisobga olish priborlariga, shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast etkazish yoki bunday hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 101 hamda Jimoyat 1852 -moddalariga asosan javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi.

VII. TOMONLARNING MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI.

ISTE'MOLCHI:

Yuridik manzili **Buloq boshi tuman tibbiyot birlashmasi**

hisob rahami: 100022860032107073101054001

Bank kodi (MFO) 000 14 STIR (INN) 200 266 763

Respublika va mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan Iste'molchilar uchun:
Byudjet fondning hisob-rahami: 100022860032107073101054001

Bank kodi (MFO) 00014 STIR (INN) 200266763

Byudjetdan tashqari fondning hisob-rahami

Bank kodi (MFO) STIR (INN)

QQS to'lovchining kodi

Telefonlar: Faks: e.mail:

(Iste'molchining, shu jumladan rahbarining xohishiga ko'ra uyali, faks telefonlari, elektron manzil yoziladi)

Kadastr rahami

Statistik kodlar:

IFUT (OKED)

DBIBT (SOOGU)

MHOBT (SOATO)

(KFS)

TSHK (KOPF)

TAMINOTCHI KORXONA:

Pochta manzili Buloq boshi tumani Uchko'cha MFY Peshqadam ko'chasi 1 uy
hisobrahami 22636000200285972310

Bank kodi (MFO) 00075 STIR (INN) 200230792

QQS to'lovchining kodi: 303010015264

Telefonlar: (74) 7732062 Faks: (74) 7732082

Statistik kodlar:

DBIBT

MHOBT (SOATO) 703210

Taminotchi korxonasi:

Buloq boshi TETK boshqaruvi

M.O' imzo, lavozimi, F.I.Sh.

SH.H.Rasulov

Iste'molchi:

Buloq boshi tuman tibbiyot birlashmasi

M.O' imzo, lavozimi, F.I.Sh. Tursunboy Davronov Aliyevich



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA
№ VG8578483662**

1. Loyihaning turi

SHARTNOMA

2. Loyihaning nomi

Ulgurji iste'molchilarga elektr energiyasi etkazib berish

“Andijon hududiy elektr ta'minoti korxonasi” AJ Buloqboshi tuman (shahar)elektr ta'minoti korxonasida 2022 yil “27” yanvarda ro'yxatdan o'tkazilgan 170011/1010 – son ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi rahbari Rasulov Shavkatbek Holiqjonovich (keyingi o'rinlarda **Ta'minotchi korxon**a deb ataladi) bir tomondan hamda ikkinchi tomondan Ulgurji iste'molchi (keyingi o'rinlarda **Iste'molchi** deb ataladi) **Buloqboshi tuman tibbiyot birlashmasi** rahbari Tursunboy Davronov Aliyevich.


3.Loyiha ishlab chiqaruvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.

Buloqboshi TTB 28.01.2022 yil

Loyiha: O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

2022 yil «31» yanvar

**Yuridik xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuristkonsulti**



A.G'.Toshxo'jazoda